

O'ZBEKISTONDA VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA SUV TANQISLIGI

Abduloyev Ashraf Muzafarovich

o'qituvchi

Asatov Jasurbek Sayitkulovich

Azarov Ibrohim Hasan o'g'li

Jo'raqulov Fazliddin Faxriddinovich

Mirzomurotov Maksudjon Farxod o'g'li

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
"Milliy tadqiqot universiteti" Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda va Markaziy Osiyo mamlakatlarida suv tanqisligi bilan bogliq muammolar va uning o'zaro munosabatlaridagi ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Markaziy Osiyo, suv muammosi, suvga bo'lgan talab, daryolar, suv resurslari.*

O'zbekistonda suvning 90% dan ortig'i qishloq xo'jaligi tomonidan iste'mol qilinadi. Surunkali tanqislik tufayli mamlakat o'zining asosiy eksport xomashyosi – paxta ekinlarini qisqartirishga majbur.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan bir xil ekologik muammolarga duch kelmoqda: suv resurslarining etishmasligi, qishloq xo'jaligiga yaroqli tuproqlarning degradatsiyasi, atrof-muhitning ifloslanishi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda kuzatilayotgan suv taqchilligi ikki yo'nalishda: birinchi navbatda, aholi ehtiyojlari uchun toza ichimlik suvi yetarli emasligi, shuningdek, qishloq xo'jaligini suv resurslari bilan ta'minlashda jiddiy muammolar yuzaga kelayotgani fonida yuz bermoqda.

Suv xo'jaligi vazirligining Kun.uz'ga ma'lum qilishicha, o'tgan asrning 80-yillarida O'zbekistonning bir yillik suv iste'moli 64 mlrd kub metr deb hisob-kitob qilingan. Shundan 20 foizi respublika ichkarisidagi daryo va soylarga, yer osti suv zaxiralariga, 80 foizi esa qo'shni respublikalar hududida shakllanadigan transchegaraviy daryolardan olindigan suv miqdorlariga to'g'ri keladi. Respublikada foydalanilgan o'rtacha yillik suv miqdori 2019 yilda – 53,9 mlrd kub metr, 2020 yilda – 51,2 mlrd kub metr, 2021 yilda – 43,2 mlrd kub metrni tashkil qilgan.

Sodda qilib aytganda, aslida suv tanqisligi sabab O'zbekiston foydalanayotgan suv miqdori hatto o'tgan asrning 80-yillarida hisoblangan respublika bo'yicha suvga ehtiyojning 75-80 foiziga ham yetmaydi. Holbuki, o'tgan davrda aholi soni qariyb ikki baravarga o'sdi, sanoat rivojlandi va umumiy ehtiyojlar yanada ko'paydi. Xuddi shunday holat qo'shni davlatlarda ham kuzatilgani inobatga olinsa, hozirgi sharoitda

mintaqada suv manbalaridan foydalanish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekistonda 4,3 mln gektar (Markaziy Osiyodagi jami sug'oriladigan yer maydoni 7,9 mln gektar, bunda O'zbekistonning ulushi qariyb 55 foiz) sug'oriladigan ekin maydonlari mavjud. Mamlakatdagi suv resurslarining 90 foizi qishloq xo'jaligi sohasida ishlatiladi. Shu jihatdan suv resurslari kamayishi mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan ham O'zbekiston uchun ko'proq salbiy oqibatlar bilan xarakterlanadi. Suv tanqisligi qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turmush darajasi yomonlashuvi, eksport kamayishi, inflyatsiya oshishi, oziq-ovqat mahsulotlari narxi qimmatlashishi va bandlikni ta'minlashda jiddiy muammolar keltirib chiqaradi.

BMT hisob-kitoblariga ko'ra, 2050 yilgacha bo'lgan davrda suvga bo'lgan global talab 55 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. Bu juda katta ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, Markaziy Osiyoda suv manbalarining kamayib borish tendensiyasi ro'y berish ehtimoli mavjud.

Xususan, muzliklar mintaqadagi suv resurslarining asosiy manbayi hisoblanadi va ularning eng katta qismi Tojikiston hududiga to'g'ri keladi. Bu yerdagi muzliklar Markaziy Osiyo suv resurslarining 60 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi.

Qo'shni davlat prezidenti Imomali Rahmonning ta'kidlashicha, bugungi kunga kelib Tojikistonda minglab kichik va o'rta muzliklar butunlay erib ketgan.

Bir necha yildan beri muttasil ravishda Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi va harorat ko'tarilishi ro'y bermoqda. Mutaxassislarining takidlashicha, so'nggi 50-60 yilda mintaqada muzliklar maydonlari taxminan 30 foizga qisqargan. Taxminlarga ko'ra, o'rtacha yillik harorat 2 darajaga ko'tarilgan taqdirda muzliklar o'z hajmining 50 foizini yo'qotishi mumkin, harorat 4 darajaga ko'tarilgan taqdirda esa – bu hajm 78 foizgacha yetadi (Ma'lumot uchun, ayni paytda havo harorati birgina O'zbekistonda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8-10 daraja issiq hisoblanadi). Natijada mavjud suv resurslari hajmi keskin qisqaradi. Mintaqada iqlim isishi oqibatida muzning erishi to'planishiga qaraganda ko'proqni tashkil qilmoqda va muzliklar o'z massasini yildan yilga yo'qotmoqda. Bu esa kelajakda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy vaziyat beqarorligini keltirib chiqarishi mumkin.

Suv manbalaridan noto'g'ri foydalanishning eng ayanchli ko'rinishlaridan biri – Orol dengizi qurishidir. Buning natijasida 5 million gektar maydonda yangi cho'l – Orolqum paydo bo'ldi. Dengizning qurigan qatlamidan kelib chiqqan chang va tuzli bo'ronlar sug'oriladigan yerlarga ham, aholi sog'lig'iga ham ta'sir qilmoqda. Bu hududda ichimlik suv tanqisligi, xavfli kasalliklar tarqalishi, yashash sharoitlari og'irlashishi natijasida aholi migratsiyasi ko'paydi, yovvoyi o'simliklar va hayvonot dunyosi qirilib ketmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, faqatgina Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari Orol dengizining yanada qurib ketishining oldini olishi mumkin. Afsuski, mintaqa davlatlari umumiy deklaratsiya va memorandumlarni imzolashdan

nariga o'tmayapti. Orol dengizi muammosini hal qilishdagi muvaffaqiyatsizliklarni uning asosan Qozog'iston va O'zbekiston hududida joylashgani va bu respublikalarning «ichki dengizi» hisoblanishi bilan izohlash mumkin. Qolgan respublikalar esa o'z ichki gidroenergetik siyosati va intensiv qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi maqsadlari sabab yuzaga kelayotgan katastrofik vaziyatga yetarli darajada e'tibor qaratayotgani yo'q.

Orol dengizidan tashqari, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ham ekologik holat yildan yilga yomonlashishda davom etmoqda. Oxirgi yillarda «Chordara» suv ombori orqali «Arnasoy» suv omboriga kam miqdorda suv tashlanayotgani sababli ko'llar tizimiga suv faqat kollektor-drenaj tarmoqlaridan kelmoqda va 2005 yildan keyingi davrda suv hajmi 34,46 mlrd. kub metrغا, ko'llarning umumiy yuzasi 320 ming gektarga kamaygan.

Xulosa

Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish ortishi, demografik o'sish va o'rtacha harorat oshishi hisobiga bug'lanish kuchayishi sababli Markaziy Osiyo mamlakatlarida yoz oylariga kelib suv manbalariga bo'lgan talab ortib bormoqda. O'z navbatida, iqlim o'zgarishi va suv resurslaridan irratsional foydalanish oqibatida mintaqadagi asosiy suv manbalari bo'lgan muzliklar erishi tezlashgan. Suv tanqisligi o'tkir va yaqin kelajakda hayot-mamot darajasiga ko'tarilishi ehtimoli yuqori bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy ekotizimni saqlab qolish va ehtimoliy iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish uchun bu boradagi ishlarni muofiqlashtirishi hamda o'z strategiyalarini qayta ko'rib chiqishi kerak. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, suv manbalari Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining paydo bo'lishidan tortib, hozirgi paytgacha bo'lgan taraqqiyotida har tomonlama muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Agar muammoga yetarli darajada e'tibor qaratilmasa, mintaqaning har bir hududida istiqomat qilayotgan aholi ayni paytda Orolbo'yi hududlarida ro'y berayotgan holatni o'zlari ko'rishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloyev, A. M., Sattorov, S. Y., Sulaymonov, M. V., Abdualiyeva, S. H., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Foreign Experience in Land Use Management. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
2. Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Hamdamovna, A. S. (2022). SUVDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 911-915.
3. Sattorov, S. Y., Abdulloyev, A. M., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Database in Land Resource Management. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.

4. Sattorov, S. Y., Abdulloyev, A. M., Ochilov, A. B., & To'xtamishov, A. B. (2022). Importance of Remote Sensing Data in The Study of Land Resources. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
5. Сатторов, Ш. Я. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ БАЗЫ ГЕОДАНЫХ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ И ГЕОВИЗУАЛИЗАЦИЯ. *Current approaches and new research in modern sciences*, 1(2), 9-15.
6. Boltavich, T. X. A., Akbar O'g'li, I. T., Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Valijonovich, S. M. (2022). QURILISH JARAYONIDA INJENERLIK GEODEZIYASINING ROLI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 904-910.
7. Boymurodovich, O. A., Akbar O'g'li, I. T., & Muzaffarovich, A. A. (2022). QURILISHDA GEODEZIK ISHLARNI TURLARI, TARKIBI VA ULARNI KUZATISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 894-898.
8. Boymurodovich, O. A., Akbar O'g'li, I. T., & Muzaffarovich, A. A. (2022). QURILISHDA GEODEZIK ISHLARNI TURLARI, TARKIBI VA ULARNI KUZATISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 894-898.
9. Yarashovich, S. S. (2021). Development of Space Data Model in Passage of Pasture Land. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(1), 34-37.
10. Adizov Shuhrat Bafoyevich. (2022, November 30). VOBKENT TUMANIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATI USTIVORLIGINI YARATISH. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7421261>
11. Shuhrat Bafoyevich, A. (2022). DEVELOPMENT OF WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF THE USE OF FARM LAND. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(11), 93–96. Retrieved from <http://interonconf.org/index.php/idre/article/view/280>
12. Bafoyevich, A. S. (2022). FERMER XO'JALIGI YER MAYDONLARI O'LCHAMLARINI MAQBULLASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.
13. Shukhrat Bafoyevich Adizov. (2022). SOCIO-ECONOMIC ASPECTS OF LAND USE IN FARMING. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(8), 60-70.
14. Bafoyevich, A. S. . (2022). LEGAL BASIS OF FARMERS ACTIVITY IN UZBEKISTAN AND ANALYSIS OF THE STAGE OF ITS DEVELOPMENT. "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 112–114. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/775>
15. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasiga ilova. PF-6024 10.07.2020

16. Zim Plant Technology Adress:Neuendorfstrasse 19 Hennigsdorf, D-16761
Germany www.zim-plant-technology.com

17. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga
mo'ljallangan konsepsiyasiga ilova. PF-6024 10.07. 2020